Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA RAMZIY OBRAZLAR

Maxmudova Jasmina Muxtor qizi
BuxDPI 1-bosqich magistranti
jasminmakhmudova94@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20551021

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi ramziy timsollarning badiiy-estetik mohiyati hamda xalq tafakkuri, ma’naviy qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, hayvonlar, tabiat hodisalari, rang va sonlar bilan bog‘liq ramziy obrazlarning folklor asarlaridagi ma’no va badiiy ta’sirchanlikni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ramziy timsollarning ma’naviy-estetik tarbiya vositasi sifatidagi o‘rni folklorshunoslik nuqtayi nazaridan baholangan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, ramziy obrazlar, folklorshunoslik, majoz, haqiqat, madaniy meros, estetik tarbiya, udum, qadriyat, mifologiya.

Annotation. This article analyzes the artistic and aesthetic essence of symbolic images in Uzbek folklore, as well as their role in expressing people’s worldview, spiritual values, and national consciousness. It also highlights the significance of symbolic representations related to animals, natural phenomena, colors, and numbers in enhancing the semantic and artistic expressiveness of folklore works. The role of symbolic images as a means of spiritual and aesthetic education is evaluated from the perspective of folklore studies.

Keywords: folklore, symbolic images, folklore studies, metaphor, reality, cultural heritage, aesthetic education, tradition, values, mythology.

Аннотация. В данной статье анализируется художественноэстетическая сущность символических образов в узбекском устном народном творчестве, а также их роль в отражении народного мировоззрения, духовных ценностей и национального сознания. Освещается значение символических образов, связанных с животными, природными явлениями, цветами и числами, в усилении смысловой и художественной выразительности фольклорных произведений. Роль символических образов как средства духовноэстетического воспитания рассматривается с точки зрения фольклористики.

Ключевые слова: устное народное творчество, символические образы, фольклористика, метафора, реальность, культурное наследие, эстетическое воспитание, традиция, ценности, мифология.

Kirish

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida xalqning ma’naviy tafakkuri, hayotiy tajribasi va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bebaho badiiy meros sifatida qadrlanadi. Folklor namunalarida qo‘llanilgan ramziy timsollar xalqning olamni anglash tarzi, ruhiy kechinmalari hamda estetik qarashlarini teran ifodalovchi muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ramziy obrazlar asarning mazmun qatlamini boyitib, undagi g‘oyaviy-falsafiy mohiyatni yanada chuqurlashtiradi hamda badiiy ta’sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois xalq og‘zaki ijodidagi ramziy timsollarni folklorshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

“Xalq og‘zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pandnasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, Alp Er to‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘shiq, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo‘lgan[1]”.

Xalq og‘zaki ijodida ramziy obrazlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular xalqning hayot falsafasi, qadriyatlari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi vositalardir. “Madaniyat ramziy vositalar yig‘indisidir”[2] . Ramziy obrazlar og‘zaki ijod namunalarida o‘ziga xos badiiylik, ma’no chuqurligi va ifodaviylikni ta’minlaydi. Ular orqali xalq o‘z dunyoqarashi, e’tiqodlari va ichki kechinmalarini bevosita va bilvosita shaklda yetkazadi. Ramziy obrazlar hayotiy haqiqatlarni badiiy shaklda yetkazish, tarbiyaviy g‘oyalarni singdirish, estetik zavq ulashish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar

Mumtoz adabiyotimizning eng sara asarlarida uchraydigan ramziy va majoziy so‘zlashni tushunish hozirgi zamon kitobxonlari uchun bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun “ramz”, “majoz” va “haqiqat” so‘zlarini tushunish lozim bo‘ladi. Shundagina adabiyotimizning durdona asarlarini chuqurroq tushunishimiz, teran anglashimiz mumkin bo‘ladi. “Ramz (arab. - ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan”[3]. Ramz obrazli va ko‘p ma’noli bo‘ladi. Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud; gul - go‘zallik, ma'shuqa; bulbul - oshiq; sariq rang - mahzunlik, qora rang - motam ramzi va boshqalar. Ijodkorlar an’anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (masalan, bulut, buloq, chaqmoq va b.)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma'noga ega bo‘ladi[4]. Jaloliddin Rumiyning majoz va haqiqatni tushunishga oid quyidagi fikrlarni aytadi: “Bir danakni qobiqsiz holda eksang, ko‘karmas, qobig‘i bilan ekkaning vaqtda unadi va ulkan daraxtga aylanadi”. Bu fikrdagi danakning tashqi, qattiq qismi majoziy qatlam bo‘lsa, mag‘zi haqiqatdir. Urug‘ unib chiqishi jarayonida avval qattiq qismi ochilgandan so‘ng, mag‘zi nish uradi va ko‘chat holiga keladi. Asarlarda yashiringan haqiqatga yetib borish uchun ham, avval majoziy ma’nosini anglash lozim bo‘ladi. Shundan keyingina uning haqiqiy ma’nosini tushunish, asarni to‘liq idrok qilish mumkin.

“Irq bitigi” qadimgi turkiy adabiyotdagi ilk ramziy-majoziy xususiyatli asardir. Unda inson hayotidagi yaxshilik va yomonlik ramziy obrazlar misolida beriladi. Bo‘ri va qo‘y haqidagi masallar jahon adabiyotida ko‘p uchraydi. Qo‘y – ojizlik, Bo‘ri – zo‘ravonlik timsolidir. “Irq bitigi”dagi quyidagi she’r bunday xususiyatli masallarning qadimgi namunalaridan hisoblanadi:

Boy kishining qo‘ylari hurkib ketibdi,
Ular bo‘riga duch kelibdi.
Bo‘ri uning suti bilan og‘izlanibdi
(yoki bo‘rining og‘zi kasallanibdi, - ya’ni og‘ribdi)
Qo‘ylar salomat va tugal qolibdi, deyishdi,
Bilib qo‘ying: bu – yaxshi.

Xalqimiz urush va halokatlardan cho‘chib yashagan. Har qanday urushning bir bahonasi bor. Ikki zo‘ravon kuchlarning to‘qnashuvi katta falokatlarga asos bo‘ladi. Ayiq va To‘ng‘iz to‘qnashuvi ifodalangan she’rda shunday ma’no ifodalanadi:

Ayiq bilan To‘ng‘iz

[1] Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Mumtoz so‘z, 2020. – B. 7
[2] Swinder. Culture in Action: Symbols and Strategies. A.: American Sociological Review, 1986. B. 273.
[3] http://uz.wikipedia.org/wiki/Allegoriya
[4] Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. T.: Adabiyot va san’at, 2023. – B. 135

Dovon ustida to‘qnashibdi.
Ayiqning qorni yorilibdi
To‘ng‘izning oziq (tish)i sinibdi, deyishdi.
Bilib qo‘ying: bu – yomon[5].

Badiiy adabiyotda ramziy-majoziy obrazlar asarni mazmunan boyitib, uning ta’sirchanligini oshiradi. Bunday obrazlar orqali yozuvchi nafaqat voqealarni hikoya qiladi, balki insoniylik, haqiqat, adolat kabi muhim qadriyatlarni o‘quvchiga chuqurroq yetkazishga harakat qiladi. O‘quvchi esa bu obrazlarni turli yondashuvlardan talqin qilish orqali adabiyotni yanada chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodida ramziy obrazlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular xalqning hayot falsafasi, qadriyatlari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi vositalardir. Ramziy obrazlar og‘zaki ijod namunalarida o‘ziga xos badiiylik, ma’no chuqurligi va ifodaviylikni ta’minlaydi. Ular orqali xalq o‘z dunyoqarashi, e’tiqodlari va ichki kechinmalarini bevosita va bilvosita shaklda yetkazadi.

Xalq og‘zaki ijodi na’munalarida uchraydigan ramziy obrazlar xalqning madaniy merosini saqlashda, ularni kelgusi avlodga yetkazishda o‘rni beqiyos hisoblanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodga asarlardagi ramziy obrazlar, ramziy ma’no tarbiya, pand-nasihat, estetik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ramziy obrazlar xalqning tarixiy va madaniy merosini avlodlarga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, doston va ertaklarda uchraydigan “Zumrad qo‘rg‘on”, “Oltin baliq” yoki “Sher” obrazlari xalqning e’tiqodi, ideal va orzularini aks ettiradi. Ramziy obrazlar og‘zaki ijodga chuqur ma’no va badiiy boylik baxsh etadi. Masalan, qushlar erkinlik va ilhom ramzi sifatida, daryo esa hayot va davomiylik timsoli sifatida tasvirlanadi.

Xalq og‘zaki ijodida ramziy obrazlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular yordamida hayotiy haqiqatlar va saboqlar tushuntiriladi. Masalan, bog‘ farovonlik va tozalikka undasa, tulpor jasorat va sadoqatni targ‘ib qiladi. Ramziy obrazlar xalqning idealistik qarashlarini aks ettiradi. Masalan, tog‘ obrazida barqarorlik va mustahkamlik, oy va quyosh obrazlarida esa yorug‘lik va adolat timsoli mujassamlashgan.

Xalq og‘zaki adabiyotida ramziy obrazlar orqali qadimgi xalqlar o‘z dunyoqarashlarini ifoda etib, hayot va inson mohiyati haqida chuqur fikr yuritganlar. Shu sababli, bu obrazlar xalq madaniyati va tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Madaniy ramzlar nafaqat ma'noni uzatish imkonini beradi, balki jamiyatdagi shaxslarning mentalitetini shakllantirishni ham belgilaydi va tajribalarni uzatishda direktiv xususiyatga ega[6].

Xalq og‘zaki ijodidagi ramziy obrazlar turli xalq rivoyatlari, dostonlar, qo‘shiqlar va afsonalarda aks etgan bo‘lib, ularning aksariyati tabiat, urf-odatlar, qadimgi e’tiqodlar va turmush tarzi bilan bog‘liq. Bu obrazlar xalq dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini ifoda etadi. Folklorshunoslikda hayvonlar ramziy obrazlar sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning har biri ma’lum bir tushuncha, xulqatvor yoki ijtimoiy hodisani ifodalaydi. Ushbu ramziy obrazlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy tajribalarini aks ettiradi. Hayvonlarning ramziy ma’nosi va ularning xalq og‘zaki ijodidagi roli quyidagicha:

Bo‘rining ramziy ma’nosi – jasorat, erkinlik va kuchning ramzi sifatida tasvirlanadi. Ko‘pincha u qahramonlik eposlari va ertaklarda asosiy qahramonning yordamchisi yoki himoyachisi bo‘ladi. Ba’zi turkiy xalqlarda bo‘ri urug‘boshi yoki milliy ramz sifatida ulug‘langan.

Bulbulning ramziy ma’nosi – sevgi va sadoqatning ramzi sifatida tasvirlanadi. Bulbulning gul uchun nolishi sevgining yor uchun intilishiga qiyoslanadi.

Qaldirg‘ochning ramziy ma’nosi – bahor, umid, yangilanish, shuningdek, fayz-baraka ma’nolarini ifodalaydi.

[5] Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. – S.: 2006. – B. 334-335.
[6] Geertz. The Interpretation of Culture. N.: Basic Books, 1973. – B. 89.

Tulkining ramziy ma’nosi – hiylakorlik, aql-zakovat va makrning timsoli sifatida tasvirlanadi. Odatda xalq ertaklarida u ayyor qahramon sifatida qatnashadi. Masalan: “Tulki bilan Bo‘ri” ertagida tulki bo‘ridan ustun kelib, uning ayyorligini namoyish qiladi.

Quyonning ramziy ma’nosi – qo‘rqoqlik, tezkorlik va ehtiyotkorlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan: “Quyonning qahramonligi” kabi ertaklarda quyon qo‘rqoq bo‘lsa-da, oxir-oqibat o‘z aql-idroki bilan muvaffaqiyatga erishadi.

Burgutning ramziy ma’nosi – balandparvozlik, erkinlik va kuch-qudrat ramzi sifatida e’zozlanadi. U ko‘pincha xalq qo‘shiqlarida va dostonlarda insonning kuchli tomonlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Misol: Burgut haqida ko‘p xalq qo‘shiqlari bor bo‘lib, ular unda xalqning erkinlikka intilishlarini tasvirlaydi.

Sigir va qoramolning ramziy ma’nosi – unumdorlik, farovonlik va barokat ramzi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodida ular ko‘pincha iqtisodiy boylikni ifodalovchi timsollardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Dehqonchilikka oid maqollarda sigir va qoramol baraka keltiruvchi obraz sifatida eslatib o‘tiladi.

Ilonning ramziy ma’nosi – ikki xil ramzga ega: salbiy ma’noda u xavf-xatar, salbiy kuchlarni; ijobiy ma’noda esa donishmandlik va tabiatning sirli kuchlarini ifodalaydi. Masalan, “Ilonning qasos olishi” kabi ertaklarda ilon salbiy obraz sifatida ishlatiladi, lekin ba’zi hikoyalarda u donolikni aks ettiradi.

“Ilon – suyumli yor, ideal muhabbat ramziy ma’nolariga ega”[7].

“G‘oz – yaxshi xabar, do‘st. muayyan matn tarkibida “ezgu niyat”, “hamfikr do‘st” va shu ko‘lamda o‘z semantik doirasini kengaytirishi mumkin. Qadim xalq tasavvurlariga ko‘ra g‘oz ezgu kuchlar (ruhning) elchisi hisoblangan. G‘oz xalqning mifologik dunyoqarashlari asosida paydo bo‘lgan o‘zak ramzlar sirasiga kiradi. “Alpomish” dostonida ham g‘oz ezgu xabarchi sifatida tasvirlanadi”[8].

“Qarg‘a – xabarchi, yomon xabarchi, dushman. Xalq orasida kishilar va yaratgan o‘rtasida xabarlarni yetazuvchi “mingta qarg‘a bor” degan tasavvur ham mavjud. Qarg‘aning ming yil yashashiga, uning xabarchi bo‘lishiga sababni izohlovchi mifologik afsona ham mashhur. Emishki, qarg‘a tangri oldida odamzodning ming yil yashagandan so‘ng: “U teshikdan kirib, bu teshikdan chiqquncha bo‘lmadim”, degan javobining muqobilida: Qarag‘ay bo‘yi qor yog‘di, Ham yog‘di-yu, ham ketdi, deb ming yillik umrga va xabarchilik vazifasiga ega bo‘lgan emish. Qarg‘a obrazining xabarchi sifatidagi talqini shu xil tasavvurlar tizimiga tayanadi”[9].

Tulpor – qahramonlik va erkinlik timsoli. Ko‘p xalq eposlarida, dostonlarda ot qahramonning ajralmas sherigi sifatida tasvirlanadi. Xalq og‘zaki ijodida hayvonlar orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy tamoyillari va ijtimoiy tajribalari aks ettiriladi. Hayvonlar obrazlari ertak, doston, maqol va topishmoqlarda ishlatilib, har bir obraz orqali muayyan xulosa yoki ma’naviy dars berishga harakat qilinadi. Bu ramzlar milliy madaniyat va urf-odatlarning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

Xalq og‘zaki ijodida raqamlar muhim ramziy ma’noga ega bo‘lib, har bir raqam o‘ziga xos bo‘lgan semantik ma’noni ifodalaydi. Bu raqamlar mifologiya, dostonlar, ertaklar, maqollar va qo‘shiqlarda turli xil ramziy ma’nolarni anglatadi. Xalq og‘zaki ijodida raqamlar faqat sonni emas, balki chuqur ma’nolarni, ramzlarni va falsafiy tushunchalarni o‘zida tashiydi. Bu raqamlar o‘sha xalqning dunyoqarashi va madaniy merosining muhim qismi sifatida o‘rganiladi. Masalan: Uch – sehrli va muhim raqam. Mukammallik va o‘zaro uyg‘unlikni ioda etadi. Masalan, ertaklarda ko‘pincha, uch aka-uka o‘zaro uyg‘unlikda keladi: “Uch aka-uka bo‘lib, safarga otlanibdilar…” Bizga ma’lumki, ko‘plab ertaklarda uchta sinov, uchta qahramon yoki uch kun kabi tushunchalar uchraydi.

Yetti – muqaddaslik, mukammallik yoki tabiat bilan bog‘liq sirli raqam. Masalan, yetti qavat osmon, yeti iqlim. Ertaklarda qahramonlar yetti tog‘ni oshgandan so‘ng yoki yetti kun yo‘l yurgandan

[7] Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – T.: Fan, 2020. – B. 121.
[8] Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – T.: Fan, 2020. – B. 120.
[9] Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – T.: “Fan”, 2020. – B. 16.

keyin o‘z maqsadlariga yetishadi. Yetti soni bilan bog‘liq xaq orasida ko‘plab maqollar ham uchraydi. Masalan, “Yetti o‘lchab – bir kes’, “Yetti uxlab, tushiga kirmagan”.

Qirq – qutlug‘ hisoblanadigan son, odatda marosimlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ertaklarda “Qirq kunlik to‘y” qilinishi yoki marhum vafot etgandan so‘ng, unga atab qirq kundan so‘ng marosim qilinishini aytishimiz mumkin.

Islom dini kirib kelguniga qadar bo‘lgan davrda ko‘plab xalqlar osmonga va tabiat hodisalariga e’tiqod qilishgan.

Tengri – osmon ilohi sifatida ulug‘langan va butun mavjudotning boshqaruvchisi sifatida tasvirlangan.

Yulduzlar – yo‘l ko‘rsatuvchi va hayot sirini biluvchi timsollar sifatida qadrlangan.

Quyosh – hayot manbai, nur va ezgulik timsoli. Ko‘plab doston va qo‘shiqlarda quyosh yorug‘likni, hayotni va haqiqatni anglatadi.

Oy – go‘zallik va sirli kuchning ramzi. Ko‘plab qo‘shiqlarda oy sevgilining yuzi yoki tabiatning husniga qiyoslanadi.

Bulut va yomg‘ir – baraka va hosildorlikni ifodalaydi. Xalq afsonalarida bulut ko‘pincha osmon bilan yer o‘rtasidagi vositachi sifatida tasvirlanadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida nafaqat bu kabi obrazlar tegishli ma’nolarni tashiydi, balki ranglar ham o‘ziga xos ramziylikka ega. Ranglar yordamida yaratilgan ramziy obrazlar xalq og‘zaki ijodining barcha kichik va katta janrlarida uchraydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ranglarga oid adabiy xususiyatlar xalq poetik tasavvurida aniq bosqichma-bosqich qabul qilinadi va u o‘ziga xos an’analarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek xalq ertaklaridagi ranglar ramziy ma’noda ezgulik va yomonlikni, yaxshi va yomon tushunchalarni ifodalaydi. Ranglar orqali murakkab kengaytirilgan ma’no va iboralar oson uslubda o‘z aksini topadi. Shuningdek, ranglarda ifodalangan ertaklarning ramziy ma’nosi ularning adabiy ifodasi va estetik ta’sirini kuchaytiradi. O‘zbek ertaklarida anglash mumkin bo‘lgan mavhum ma’nolar, odatda, ranglar yordamida ifodalanadi. Masalan, “oq yo‘l”, “oq fotiha”, “qora niyat”, “baxti qora” kabi. Oq rang ezgulikni ifodalasa, qora yovuzlik ma’nolarini tashiydi. Oq rang ba’zi asarlarda osuda kelajak, qahramonning uzoq joylarga sayohati va ularning ezgu xohish-istaklarini ifodalaydi. Lekin O‘rta va Uzoq Sharqda oq rang motam ramzi sifatida qaraladi.

“Ziyod botir” ertagida noloyiq o‘g‘il ma’nosini bildiruvchi “oqpadar” epiteti bor. Bu iborada “oq qilmoq” degan ma’no borligini bilamiz, ya’ni ota va bola o‘rtasidagi munosabatni bog‘laydigan hech nima qolmagan. Bu la’natga duchor bo‘lganlarga nafratlanish tuyg‘usini ifodalaydi. Shuni hisobga olishimiz kerakki, oq rangning salbiy ma’noda qo‘llanilishida o‘zbek urf-odatlarida kamdan-kam uchratamiz.

Xulosa

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, xalq og‘zaki ijodidagi ramziy timsollar xalqning ko‘p asrlik tafakkuri, ma’naviy qarashlari va milliy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi muhim badiiy-estetik vosita hisoblanadi. Folklor namunalarida uchraydigan ramziy obrazlar asarning mazmun-mohiyatini boyitib, uning ta’sirchanligi hamda badiiy ifodaviyligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ular orqali xalqning hayot haqidagi tasavvurlari, e’tiqodlari, orzu-intilishlari va ruhiy kechinmalari teran ifodalanadi.

Shuningdek, ramziy timsollar madaniy va tarixiy merosni kelajak avlodlarga yetkazuvchi muhim manbalardan biri sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xalq og‘zaki ijodidagi ramziy obrazlarni ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish adabiyotshunoslik, folklorshunoslik hamda ma’naviy-estetik tarbiya jarayonida muhim ilmiy-amaliy qiymatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. T.: Adabiyot va san’at, 2023. – 404. b.
2. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. – S.: 2006. – 356. b.

3. Geertz. The Interpretation of Culture. N.: Basic Books, 1973. – 351. b.
4. Imomnazarov M. Haqiqat va majoz. “Sharq yulduzi” jurnali. 1988, 1990 va 1991 yilgi 4-soni.
5. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2020. – 233. b.
6. Imomnazarov M. Haqiqat va majoz. “Sharq yulduzi” jurnali. 1988, 1990 va 1991 yilgi 4-soni.
7. Mamadaliyeva Z. Qaqnus timsoli talqinlari. // Mumtoz adabiyotda qushlar obrazi. “Sharq yulduzi” jurnali. 2013. 6-soni.
8. Swinder. Culture in Action: Symbols and Strategies. A.: American Sociological Review, 1986. – 286. b.
9. Temel Eğinle A., Kardelen Nazli A. Kültürün koruyucu gücü: Kültürel semboller. “Egemia”. 2018.
10. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – T.: “Fan”, 2020. –192 b.
11. http://uz.wikipedia.org/wiki/Allegoriya
12. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ramz
13. https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/download/1817/1659/3371
14. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mifologik_obrazlar